

**ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLARNING DEVIANT HARAKATLARI:
ILDIZLARI VA PROFILAKTIKA CHORALARI***Nazarova Nilufar Jo‘rayevna**Toshkent davlat transport universiteti**Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti (PhD)**Ahmadjonova Shahnozabonu Muhammadali qizi**Toshkent davlat transport universiteti**Sotsiologiya yo‘nalishi**2-bosqich talabasi**O‘roqboyeva Dilnoza Najmiddin qizi**Toshkent davlat transport universiteti**Sotsiologiya yo‘nalishi**2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqolada yoshlar orasida uchrayotgan deviant xatti-harakatlar, ya’ni jamiyatda qabul qilingan normalarga zid bo‘lgan ijtimoiy xatti-harakatlar tahlil qilinadi. Deviantlik tushunchasining sotsiologik talqini, xususan Emil Dyurkgeymning anomiya nazariyasi, Robert K. Mertonning sotsiostruktural yondashuvi va H. Bekerning stigmalash nazariyasi asosida izohlanadi. Shuningdek, yoshlar orasidagi deviantlikning asosiy shakllari bolgan jinoyatchilik, giyohvandlik, maktabni tark etish, tajovuzkorlik va virtual muhitdagi zararli xatti-harakatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, deviant xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralar, ta’lim tizimi va oilaning roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Yosh avlod, deviant xatti-harakat, globallashuv, jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, tajovuzkorlik, ruhiy buzilish, suidsidga moyillik, strukturaviy funksionalizm, ommaviy madaniyat.

Har qanday jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti, avvalo, yosh avlodning ijtimoiy ongiga, axloqiy mezonlarga va xulq-atvoriga bog‘liq. Ammo bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan davrda yoshlar orasida deviant, ya’ni jamiyat tomonidan qabul qilingan normalarga zid bo‘lgan xatti-harakatlarning ko‘payishi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Deviant xatti-harakatlar – bu ijtimoiy normalar va qoidalarni buzuvchi, ko‘pincha salbiy oqibatlariga olib keluvchi harakatlardir. Bunday holatlar jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, tajovuzkorlik kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada yoshlar orasida deviant xatti-harakatlarning kelib chiqish sabablari, ularning ijtimoiy-psixologik omillari hamda oldini olish yo‘llari tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda jamiyatimizda sodir bo‘layotgan jinoyatlarning katta qismi yoshlar va o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgani sababli insonlar orasida deviant xulq-atvor muammosiga qiziqish obyektiv ravishda oshdi. Bu esa bunday xulq-atvor shakllanishining turli xil sabablarini o‘rganishni taqozo etadi. Deviantlik bu – har qanday xulq-atvor va odob-axloq normalaridan chetga chiqish hisoblanadi. Deviantlik ko‘pincha o‘smirlar va o‘spirinlarda kuzatiladi. Xulq-atvordagi bunday og‘ishlarning asosiy sababi psixologik siljish hisoblanadi. Bunday psixologik og‘ishlar tanqidlar, janjallar, asabiy buzilishlar, huquqbuzarlik kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Ayni vaqtda, ayrim ekspertlar hozirgi vaqtda deviant xulq-atvor guruhiga ko‘proq moddiy jihatdan o‘ziga to‘q oilalarning bolalari va o‘smirlari tushib qolishiga asosiy e‘tiborni qaratishadi. O‘ziga to‘q oila bolalari ko‘pincha ota-onasining erka farzandi hisoblanadi. Yoshlik paytlarida ularning istagini oila a‘zolari so‘zsiz bajarishadi. Buning natijasida bolada “Men nimani xohlasam, otam yoki onam shuni bajarishga majburdirlar”, degan noto‘g‘ri qarashlar shakllanadi. Ayniqsa, o‘ziga to‘q oila bolalari o‘zlaridan mavqei pastroq bo‘lgan oila farzandlarini kamsitadi, ularga ruhiy zarbalar beradi. Bu ham deviantlikning bir ko‘rinishidir. Umuman olganda, bugungi kunda jamiyatning qaysidir qatlarmlaridan birini deviant xulq-atvordan himoyalangan deb hisoblab bo‘lmaydi. Har bir o‘smir atrof-muhitda turli xil ta’sir va bog‘liqliklarga duch keladi. Moddiy yetuklik, ota-onalarning yuqori ijtimoiy mavqei bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy normalarga rioya qilishi uchun yetarli kafil bo‘la olmaydi.

O‘smir xulq-atvorida spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste’mol qilishga qarshi jins vakiliga bo‘lgan qiziqishlar birmuncha oshadi. Qiziqishlarning kuchliligi shu ishlarni amalga oshirish xohishini keltirib chiqaradi. Bunday hollar ham, shubhasiz, deviantlikning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Aytaylik, o‘smirning sevgisi rad etilsa, unda mahzunlik, hayotga bo‘lgan qiziqish, asabiylik, ishtahasizlik, ruhiy buzilish, suidsidga moyillik kabi holatlar ro‘y beradi. Suidsida esa, deviant xulq-atvorning yaqqol namunasi hisoblanadi. Bugungi zamonaviy dunyoda internet, virtual dunyo, axborot oqimi tahlili, uning sotsiologik jihatlarini va yoshlar muammolarini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, globallashuv jarayonida ma’naviy hayotimizni izdan chiqaruvchi jiddiy xavflarni inobatga olgan holda ularning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur. Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z-o‘zini o‘ldirish (suidsida) bilan ijtimoiy illatlarning yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko‘ra o‘ziga xos jihatlariga ega. Uzoq davom etadigan turli xil zararli odatlar, doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof muhitdan qoniqmaslik, uydagi turli-tuman tushunmovchiliklar, bularning barchasi o‘smirning ruhiyatiga shikast yetkazadi. Buning natijasida o‘smir mavjud noxush vaziyatlarni yaxshi tomonga o‘zgartirishga harakat qiladi. Bu jihatdan, kamchiliklar, jumladan nizolar rivojlanishga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi.

Voyaga yetmaganlarning xulq-atvori profilaktikasi ishida ommaviy axborot vositalari orqali tashviqiy-ma'rifiy ishlarni olib borish muhimdir. Jamoatchilik fikri so'rovi ma'lumotlari bo'yicha televideniye o'smirlar va yoshlar uchun axborot olishning afzalroq manbai hisoblanadi. Shu munosabat bilan ijtimoiy reklamaning roli yuqoriga o'sadi. Ijtimoiy reklama o'z takliflari bilan mehnatni rag'batlantiradigan, ijobiy maqsadlarga erishish uchun inson faoliyati motivatsiyasini kuchaytiradi. Reklama ijtimoiy qadriyatlarni yoyadi va targ'ib qiladi. U mamlakatlar va xalqlarning yashash tarzini, andozalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Reklamaning ijtimoiy funksiyasi turmush tarzi targ'ib qilinishini ham nazarda tutadi. Misol uchun, Janubiy Koreya davlatida ta'lim jarayonida band bo'lgan yoshlarni majburlab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga olib kirishmaydi. Doimiy bunday majburlashlar yoshlarni me'dasiga urib qolishi tabiiy hol. O'quv jarayonlarini boshqarish axborot tizimidagi o'quvchi va talabalarning shaxsiy kabinetida yakuniy baholash natijasini bilmoqchi bo'lganlarga deviant bilan bog'liq qisqa muddatli ijtimoiy roliklar qo'yib boriladi. Ushbu rolikni ko'rib bo'lgach talaba baholash natijalarini bilib olishi mumkin.

Hozirgi vaqtda deviant xulq-atvorning sabablari shundaki, o'smirlar ijtimoiy tabaqalanishni boshdan kechirmoqdalar, mo'l-ko'lliksiz yashay olmaydilar va yaxshi ta'lim olishga intilishlari kuchaymoqda. Shu asosda psixologik siljish yuz bermoqda, bu tanqidlar, janjallar, asabiy buzilishlar, huquqbuzarlik va uydan qochish bilan yakunlanadi. Agar o'smir ko'cha muhitiga, mushtlashuvchilarga, rokerlarga yoki haddan tashqari sevuvchilarga tushib qolsa, unda u salbiy manfaatlar va kattalarning xatti-harakatlariga bo'lgan istakni shakllantiradi. Bu erta jinsiy tajriba, giyohvand moddalar va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishni talab qiladi. Bunday hodisalarning asosiy sababi ota-onalarning beparvoligi, bolaga yetarlicha e'tibor bermaslikdir. Shuning uchun, deviant xatti-harakatlarning dastlabki belgilarida o'qituvchilar ota-onalari bilan o'zaro munosabatda bo'lib, oilaviy muhitni aniqlab olishlari kerak. Og'ishadigan xulq-atvor xilma-xil bo'lib, ularni uch katta guruhga bo'lishimiz mumkin:

Deviant og'ishish, odob-axloq normalaridan og'ish;

Delekvent xulq-atvor, huquq normalarining unchalik sezilarli bo'lmagan darajada buzilishi;

Jinoiy xulq-atvor, jinoiy huquq normalarining jiddiy ravishda buzilishi.

Deviant xulq-atvor har bir davrning o'ziga xos muammosi hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir sotsiolog bu xulq-atvor turini o'rganib, o'zlarining ilmiy qarashlarini bildirib o'tgan. Deviant xulq-atvorning madaniy jihatlarini asoschisi Y.I.Gilinskiy ushbu atamani muomalaga kiritdi. Shunday bo'lsada ilk tadqiqotlar boshida E. Dyurkgeym turadi. Bugungi kunga kelib esa deviant xulq-atvor muammolari tadqiqotchilari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Deviant xulq-atvorning axloqiy-etik omili jamiyatning past ma'naviy-axloqiy darajasida ma'naviyatsizlikda, mayda-

chuyda narsalarga berilish psixologiyasida shaxsning begonalashib ketishi namoyon bo'ladi. Xulq-atvordagi tanazzul yoki pasayish alkogolizm, darbadarlikda giyohvandlikning tarqalishida, "pulga sotilgan sevgida", zo'ravonlikda, huquqbuzarlikda namoyon bo'ladi.

Strukturaviy funksionalizm yo'nalishi namoyondasi amerikalik Robert R. Merton E. Dyurkgeymning "anomiya" tushunchasini rivojlantiradi va "ijtimoiy anomiya" nazariyasini ishlab chiqadi. Deviant xulq-atvor bilan ijtimoiy struktura o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikka urg'u bergan holda R. Merton ijtimoiy strukturalar jamiyatning alohida a'zolariga nisbatan bosim o'tkazadilar va ularni yaxshi qoidalaridan og'ishish yo'liga o'tishga undaydilar deb hisoblaydi. "Anomiya", "madaniyat" va "ijtimoiy struktura" o'rtasidagi normal qonuniy vositalar va ehtiyojlarning qondirishning yangi (noqonuniy) usullarini izlash o'rtasidagi nizo yoki kelishmovchilik nazariyasini namoyon etadi. R. Merton fikricha, anomiya "madaniyat me'yorlari va maqsadlari hamda guruh a'zolarining ijtimoiy shakllangan ular bilan muvofiq ravishda harakat qilish layoqatlari o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda" yuzaga keladi. Ya'ni o'zining jamiyat ijtimoiy tuzilmadagi o'rni tufayli ba'zi odamlar me'yoriy qadriyatlarga muvofiq harakat qilish layoqatiga ega emaslar. Madaniyat ijtimoiy tuzilma to'sqinlik qiladigan ma'lum xulq-atvor turini talab etadi. Masalan, amerikacha jamiyatda madaniyat moddiy yutuqqa katta ahamiyat beradi. Biroq ijtimoiy tuzilmadagi mavqei tufayli ko'plar bunday yutuqqa erishish imkoniyatiga ega emaslar. Agarda inson tug'ilganidan past ijtimoiy- iqtisodiy tabaqaga mansub bo'lsa, buning oqibatiga ko'ra eng yaxshi holatda oliy o'quv yurti bitiruvchisi darajasini olishi mumkin bo'lsa, uning rasmiy bo'lib qolgan usullar bilan iqtisodiy yutuqlarga erishish imkoni juda kam bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi.

A.I. Kravchenko tomonidan deviant va delikvent xulq-atvorining o'zaro farqlanishi quyidagicha ifodalanadi: deviant va delikvent xulq-atvor bu me'yoriy xulq-atvordan og'ishning 2 shakli bo'lib. Bunda birinchi shakl nisbatan kam ahamiyatga ega bo'lib, ikkinchisi mutlaq va sezilarli hisoblanadi. Delikvent xulq-atvor qilmishlari ular bevosita yo'l bilan ta'qib qilinishiga qaraganda keng ko'lamdagi spektrni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu ko'rinishda xulq-atvorning ko'plab turli xil shakllari hatto agar xulq-atvor o'ziga xos tarzdagi huquqiy me'yorlarga qarshi xususiyatlarga ega bo'lmasada ijtimoiy jazoga mahkum qilinishi yoki tahqirlanishi mumkin, bu ko'rinishdagi xulq-atvor shakllariga misol sifatida haqoratlar, "ahmoqona to'da"ga qo'shilish, odatga aylanmagan tarzdagi mastlik holatlari kabilarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Deviant xulq-atvorning jamiyatda shakllanishiga asosiy turtki beruvchi sabablardan biri internet va ijtimoiy tarmoqlardan noto'g'ri foydalanishdir. To'g'ri bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo'lmasligini namoyon etadi. Albatta, aksariyat odamlarning faoliyati internet,

ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq. Ammo inson ongi, va qalbi va ruhiyatiga tazyiq o'tkazishga harakat qilayotgan g'arazli kuchlar axborot xurujlarini amalga oshirishda eng ta'sirchan vositalar sifatida internet tizimi va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishmoqda. Ayni paytda ular orqali tarqatilayotgan milliy ma'naviyatimizga yot g'oyalar va axborot xurujlarining yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlari ko'pchilikni tashvishga soladi. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev shunday ta'kidlagan: «... biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz».

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ilm-fan, jamiyat rivojlanishida hissasi katta, ammo zarari ham o'ziga yarasha. Bu muammoni hal etish ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish uchun esa yoshlar ongidagi ma'naviy bo'shliqni foydali ma'lumotlar bilan oziqlantirish va bo'sh vaqtlarini maksimal darajada unumli foydalanishlari uchun sharoitlar yaratilib berilmoqda. Ma'naviy immunitetni kuchaytirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019-yil mart oyida 5 muhim tashabbusni ilgari surdi. yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlari, jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirish, kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi. Bu loyiha puxta tuzilgan bo'lib, nafaqat bo'sh vaqtni samarali tashkil etish, balki deviant xulq-atvorli yoshlar ko'rsatkichlarini kamaytirishga, sog'lom turmush tarzi yaratishga ham ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Davlatimiz rahbari 2020-yil 25-dekabrda Yoshlar forumida o'zining dolzarb fikrlarini bildirib o'tdi: «Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur». Shuningdek, yoshlarga qarata: «Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va ogoh bo'lishi, har bir masalada, avvalo, Vatan manfaatlarini o'ylab ish tutishi zarur. Ilm-ma'rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma'naviy poklik, kattalarga hurmat kichiklarga izzat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz millatimizning qonida bo'lib kelgan.

... Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz» - dedi Sh.M. Mirziyoyev. Shunday

ekan, oila+ta'lim+davlat=institutlari hamkorligi uzluksiz davom ettirilishi jamiyatda nisbatan deviant xatti-harakatlarini kamayishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. - Qonun himoyasida | T. №1. 2001-yil. 23-bet.
2. Abduvakilovna, K. U., & Xusanovna, R. X. (2022). O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA’SIRI. Journal of new century innovations, 19(2), 91-94.
3. Юнусова Н. Ш. Назарова Нилуфар Жўраевна, & Жуманиязова Насиба Сапарбоевна (2022) //ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). Современное образование (Узбекистан),(6 (115)). – С. 9-16.
4. Gafurovna A. S., Juraevna N. N. Issues of Formation of Information and Internet Culture at Young People //International Journal of Development and Public Policy. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 27-30.
5. Juraevna N. N. THE ROLE OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN YOUTH SOCIAL ACTIVISM //Archive of Conferences. – 2021. – С. 50-51.
6. Назарова Н. Ж., Абдурахманова С. А. ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ МОЛОДЕЖИ //Экономика и социум. – 2022. – №. 12-2 (103). – С. 475-481.
7. Назарова Н. Ж. ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИНГ КАСБИЙ РАҚОБАТБАРДОШЛИК СИФАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ (ТРАНСПОРТ СОҲАСИ МИСОЛИДА) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 765-771.
8. Rakhmonov D., Nazarova N. Socio-Philosophical Reflection of the Social Sphere Model //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 1-6.
9. Nosirov R. et al. Occupational problems in youth competitiveness //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2789. – №. 1.
10. Nazarova N. J., Jumaniyazova N. S. The Role of Family on Preventing the Youth's Deviant Behaviours //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 854-859.